

# USTOZ VA MURABBIYLARGA TABRIK



## **Hurmatli fidoiy o'qituvchilar hamda jonkuyar murabbiylar!**

Avvalo, siz, azizlarni, sizlarning timsolingizda ustoz degan sharaflı nomni ulug'lab kelayotgan yurtimizdagи barcha insonlarni umumxalq bayrami - O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan chin qalbimdan samimiyl muborakbod etaman. Alloh taboraka va taolo ustoz va murabbiylarni yosh avlod tarbiyasi yo'lida qilayotgan mehnatlarini ulug' ajru mukofotlar bilan siylasini.

Hazrati Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, dunyoning bor boylik va xazinasi bilan ham ustozlarning oljanob mehnatingiz haqini ado etib bo'lmaydi. Haqiqatan ham, har bir yosh avlodni o'z farzandidek ardoqlab, yosh avlod tarbiyasi uchun ko'z nuri, qalb qo'ri, butun borlig'ini baxsh etadigan o'qituvchi va murabbiylar tom ma'noda fidoiy kasb egalaridir.

Aziz ustozlar! Barchangizga sihat-salomatlilik, baxt va omad, xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik, fayzu baraka tilayman. Doimo sog'-omon bo'ling, aziz ustozlar!

**M.O'RMONOVA,**

**Qo'shtepa tumani bosh otinoyisi.**

[\*\*Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating\*\*](#)

[Facebook](#),

2021-09-30 14:13:35